

**O‘SIMLIK MODDALARI KIMYOSI INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI
DSc. 02/30.01.2020. K/T.104.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘SIMLIK MODDALARI KIMYOSI INSTITUTI

ALLABERGENOVA SEVARA MAMMADJANOVNA

**BITSIKLIK XINAZOLINLAR QATORIDA SULFONAMIDLAR
SINTEZI VA KIMYOVIY O‘ZGARISHLARI**

02.00.03-Organik kimyo

**Kimyo fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Kimyo fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по

химическим наукам

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on

chemical sciences

Allabergenova Sevara Mammadjanovna

Bitsiklik xinazolinlar qatorida sulfonamidlar sintezi va kimyoviy
o‘zgarishlari.....

3

Аллабергенова Севара Маммаджановна

Синтез и химические превращения сульфонамидов в ряду
бициклических хиназолинов.....

23

Allabergenova Sevara Mammadjanovna

Synthesis and chemical transformations of sulfonamides in the series
of bicyclic quinazolines

45

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works

49

**O‘SIMLIK MODDALARI KIMYOSI INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI**

DSc. 02/30.01.2020. K/T.104.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘SIMLIK MODDALARI KIMYOSI INSTITUTI

ALLABERGENOVA SEVARA MAMMADJANOVNA

**BITSIKLIK XINAZOLINLAR QATORIDA SULFONAMIDLAR
SINTEZI VA KIMYOVIY O‘ZGARISHLARI**

02.00.03-Organik kimyo

**Kimyo fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.PhD/K869 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'simlik moddalari kimyosi institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.uzicps.uz) va "ZiyoNet" axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Yakubov Ubaydullo Majitovich,
kimyo fanlari nomzodi, katta ilmiy xodim

Rasmiy opponentlar:

Yuldasheva Muhabbat Razzoqberdiyevna,
kimyo fanlari doktori, professor

Nasrullayev Azizbek Ozodovich,
kimyo fanlari bo'yicha PhD, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Toshkent farmatsevtika instituti

Dissertatsiya himoyasi O'simlik moddalari kimyosi instituti huzuridagi DSc.02/30.01.2020.K/T.104.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 22 avgust soat 9⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100170, Toshkent sh., Mirzo Ulug'bek ko'ch., 77. Tel.: (+99871) 262-59-13, faks: (+99871) 262-73-48), e-mail plant_inst@icps.org.uz, ixrv@mail.ru.

Dissertatsiya bilan O'simlik moddalari kimyosi instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (53 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100170, Toshkent sh., Mirzo Ulug'bek ko'ch., 77. Tel.: (+99871) 262-59-13, faks: (+99871) 262-73-48, e-mail: nhidirova@yandex.ru).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "8" avgust da tarqatildi.
(2025-yil 8 avgust dagi 7- raqamli reyestr bayonnomasi).



Sh.Sh. Sagdullayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
texnika fanlari doktori, akademik

N.K. Xidirova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi
kimyo fanlari nomzosi, katta ilmiy xodim

E.X. Botirov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi,
kimyo fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda ilm-fanning rivojlanishi bilan o'simlik, hayvon va inson kasalliklarining turlari va ko'lami ham ortib bormoqda. Bu esa ularga qarshi dori vositalarini yetishmovchiligini keltirib chiqarmoqda. Zaharliligi kam bo'lgan, yangi geterohalqali birikmalarni sintez qilish ularni biologik faolligini o'rganish kimyogarlar, biologlar va farmakologlar oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Hozirgi kunda dunyoda tibbiyot va qishloq xo'jaligi sohalarining dolzarb vazifalaridan biri yuqori samarali, xavfsiz va raqobatbardosh preparatlarni ishlab chiqishdir. Ushbu preparatlarni yaratishda muhim tadqiqotlardan biri birikma molekulasida faol funksional guruhlar yoki fragmentlar saqlagan maqsadli birikmalarni sintez qilish va amaliy ahamiyatga ega modifikatsiya usullarini ishlab chiqishdan iboratdir.

Bugungi kunda dunyoda yuqori biologik faollikka ega, tarkibida sulfonamid va sulfonilmochevina fragmentlari saqlagan yangi geterohalqali birikmalarni maqsadli sintez usullarini yaratish va ularni amaliyotga muvaffaqiyatli qo'llash muhim hisoblanadi. Bunda import o'rnini bosuvchi va eksportga yo'naltirilgan samarali mahalliy preparatlar yaratish, ularning kimyoviy va biologik xossalarini yanada yaxshilash muhim ahamiyatga ega.

Bu yo'nalishda, jahonda qishloq xo'jaligi va tibbiyot amaliyotida tarkibida sulfonamid va sulfonilmochevina fragmentlari saqlagan preparatlar keng qo'llanilmoqda. Xususan, xinazonlar (benzopirimidinonlar, BP) asosida ham gerbitsidlar, fungitsidlar, bakteritsidlar, shuningdek, viruslarga, mikroblarga, shamollashga va saratonga qarshi preparatlar yaratilgan. Bunga oxirgi yillarda saraton kasalligining har xil turlariga qarshi muvaffaqiyatli qo'llanilib kelinayotgan imatinib, erlotinib, lapatinib va afatinib dori vositalari yaqqol misol bo'ladi. Shuning uchun, tarkibida mazkur farmakofor (sulfonamid va sulfonilmochevina) fragmentlar va xinazon halqasi tutgan yangi, potensial biologik faol birikmalarni maqsadli sintezini va kimyoviy modifikatsiyasini amalga oshirish, ularning tuzilishini zamonaviy usullar asosida identifikatsiya qilish, olingan birikmalarning biologik xossalarini aniqlash va istiqbolli «nomzod» moddalar asosida yangi yuqori samarali preparatlarni yaratish juda muhimdir.

O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida «Farmatsevtika sanoatini yanada rivojlantirish, aholi va tibbiyot muassasalarining arzon, sifatli dori vositalari bilan ta'minlanishini yaxshilash» vazifalari belgilab berilgan. Mazkur yo'nalishda, O'simlik moddalar kimyosi instituti olimlari tomonidan tabiiy va sintetik moddalar asosida qishloq xo'jaligi va tibbiyot uchun samarali dori vositalari (uchqun, rozalin, nikamizolon, galantamin, dezoksipeganin, sitizin va b.) yaratilgan. Shuning uchun, 2H(metil)3-alkil-4-okso-3,4-digidroksinazolin-6-sulfonamidlarining maqbul sintez usullarini ishlab chiqish, ularning nukleofil va elektrofil reagentlar bilan reaksiyalarini tizimli o'rganish, jarayonlarga ta'sir etuvchi asosiy omillarni va kimyoviy qonuniyatlarini aniqlash, olingan birikmalarning fizik-kimyoviy va biologik xossalarni tadqiq etish yangi va samarali dori vositalarini yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 10-apreldagi «2019-2021 yillarda Respublikaning farmatsevtika tarmog‘ini yanada jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-5707-son farmoni, 2021-yil 13-fevraldagi «Kimyo sanoati korxonalarini yanada isloh qilish va moliyaviy sog‘lomashtirish, yuqori qo‘shilgan qiymatli kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» gi PQ-4992-son qarori, 2022-yil 28-yanvardagi «2022-2026- yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-60-son farmoni hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. Kimyo fanlari, kimyoviy texnologiyalar va nanotexnologiya ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Geterohalqali sulfonamidlar va xinazonlar kimyosi va biologiyasi sohasidagi izlanishlar 100 yildan avval boshlangan. Dunyoning ko‘pgina mamlakatlarida bu sinf birikmalari asosidagi izlanishlar jadal olib borilmoqda. Xususan, Paul Gelmo, Gerxardom Domagkom, O.Y. Magidsona, M.V. Rubsova, I.Y. Postovskogo, Mohamed S.A. El-Gaby, Zainab Hussain, Selvaraj Kavitha, Ze-Xin Zhang, Michael C. Willis, J.P. Michael, K. Nepali, S.B. Mhaske, M.T. Richers, W.R. Bowman, C. Zhang kabi xorijlik olimlar sulfonamidlar va xinazonlar (BP) sintezi, reaksiyalari va amaliyotda qo‘llanilishini o‘rganish bilan shug‘ullanishgan. Respublikamizda mazkur yo‘nalishlar rivojiga S.Y. Yunusov, T.S. Tulyaganov, X.M. Shaxidoyatov, N.D. Abdullayev, N.A. Aliyev, E.Oripov, B.J. Elmuradov, N.S. Muxamedov, B. Tashxodjeyev, D.I. Egamov, U.M. Yakubov va boshqalar o‘z izlanishlari bilan sulfonamidlar (benzimidazol va benzoksazol qatori) va xinazon hosilalarini sintezi, kimyoviy o‘zgarishlarini amalga oshirish va biologik faolligini aniqlashga o‘z hissalarini qo‘shishgan.

Mazkur izlanishlarga qadar bitsiklik xinazonlar bilan ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan. Lekin, bu qatorda sulfonamidlar sintezi, ularning elektrofil reagentlar (alifatik, aromatik izosianatlar va turli xil aldegidlar) bilan ta’sirlashishi hamda biologik faolligi to‘g‘risida adabiyotlarda qiyosiy ma’lumotlar deyarli yo‘q. Shuning uchun, mazkur birikmalar qatorida sulfonamidlar sintezini sistematik tadqiq etish, reaksiyalar borishiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash, olingan sulfonamidlarning ba’zi kimyoviy o‘zgarishlarini amalga oshirish va yangi biologik faol birikmalarni aniqlash maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O‘simlik moddalari kimyosi institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining VA-FA-F-7-006: “Sulfonilmochevinalar, triazinlar va ularning geterohalqali analoglari qatorida selektiv pestitsidlarning yangi avlodini sintez qilishning fundamental asoslari” (2017-2020) mavzusidagi fundamental loyiha hamda Organik sintez bo‘limining “Individual sintetik va tabiiy geterohalqali birikmalar, ularning kompozitsiyalari, (almashingan) mochevina hosilalari, hamda o‘simlik ekstraktlari asosida qishloq xo‘jaligi va tibbiyot uchun preparatlar izlash” (2022) mavzusidagi budjet mablag‘lari dasturi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi bitsiklik xinazonlar qatorida bir reaktorli sintez (One-pot synthesis) usulida geterohalqali sulfonamidlarning takomillashgan sintez usullarini ishlab chiqish, ularning maqsadli kimyoviy modifikatsiyasini amalga oshirish, natijalarni o'zaro qiyosiy taqqoslash, sintez qilingan birikmalarning tuzilishini, fizik-kimyoviy va biologik xossalarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

asosiy dastlabki moddalar - 2H(alkil)-xinazolin-4(3H)-onlar, 2H(metil)-3-alkilxinazolin-4(3H)-onlar, 2-etil-3-alkilxinazolin-4(3H)-onlarning samarali sintez usullarini ishlab chiqish;

3-almashingan va 2,3-dialmashingan xinazolin-4(3H)-onlarning xlorsulfon kislota va ammiak ishtirokida bir reaktorli (One-pot synthesis) sintezini amalga oshirish;

3-alkilxinazolin-4(3H)-onlarning xlorsulfon kislota va gidrazin gidrat ishtirokida bir reaktorli reaksiyasini olib borish;

3-butil-4-okso-3,4-digidroxinazolin-6-sulfoxloridning aminlar bilan nukleofil almashinish reaksiyalariga va mahsulot unumiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash;

olingan sulfonamidlarning maqsadli modifikatsiyalarini amalga oshirish;

2H(metil)-3-alkil-4-okso-3,4-digidroxinazolin-6-sulfonamidlarning aromatik va alifatik izosianatlarga nukleofil birikish reaksiyalarini amalga oshirish;

2H(metil)-3-alkil-4-okso-3,4-digidroxinazolin-6-sulfonamidlarning almashingan benzaldegidlar bilan reaksiyalarini olib borish;

sintez qilingan birikmalar orasidan biologik faol moddalar izlash.

Tadqiqotning obyektlari sifatida xinazolin-4(3H)-on, 2-metilxinazolin-4(3H)-on, 2H(metil, etil)-3-alkilxinazolin-4(3H)-onlar, ular asosida sintez qilingan 2H(metil, etil)-3-alkil-4-okso-3,4-digidroxinazolin-6-sulfonamidlar va ularning yangi hosilalari tanlangan.

Tadqiqotning predmeti dastlabki 2(H, metil, etil)xinazolin-4(3H)-onlar, 2(H, metil, etil)-3-alkilxinazolin-4(3H)-onlarning takomillashgan sintez usullari, ularning aminlar, alifatik hamda aromatik izosianatlar va benzaldegidlar ishtirokida yangi sulfonamidlar va sulfonilmochevinalarning olinish usullari, reaksiyalar yo'nalishi va mahsulotlar turiga ta'sir etuvchi omillar, sintez sharoitlari, fizik-kimyoviy va biologik xossalarini aniqlash hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. An'anaviy va bir reaktorli (One-pot) organik sintez usullari, IQ, ^1H va ^{13}C YaMR spektroskopiya, mass-spektrometriya, rentgen tuzilish tahlili (RTT), xromatografiya (yupqa qatlamli (YuQX) va kolonkali (KX)) hamda biologik tadqiqot usullari.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

2H (alkil) xinazolin-4(3H)-onlarni ishqoriy katalizatorlar ishtirokida N³-alkillash reaksiyalarida alifatik radikallar metilen guruhlari sonining oshib borishi bilan alkil mahsulotlar unumi (**4** (Me) > **5** (Et) > **6** (Pr) > **7** (Bu) > **8** (Pe) > **9** (Hx) > **10** (Hp)) qatorda pasayishi aniqlangan va fazoviy omillar ta'siri bilan izohlangan;

ilk bor 3-alkil-, 2,3-dialkilxinazonlarning xlorsulfon kislota va ammiak ishtirokidagi bir reaktorli (One-pot synthesis) sintez usuli muvaffaqiyatli amalga oshirilgan, sulfonamidlarning maqbul olinish usullari va reaksiyalarning taxminiy mexanizmi tavsiya etilgan;

3-metil (etil)-4-okso-3,4-digidroksinazolinlar, xlorulfon kislotasi va gidrazin gidratning bir reaktorli reaksiyalari yordamida yuqori sintetik potensialga ega, tarkibida binukleofil markaz saqlagan sulfonilgidrazidlar hosil bo'lishi aniqlangan;

3-butil-4-okso-3,4-digidroksinazolin-6-sulfoxloridning birlamchi, ikkilamchi aromatik va geterotsiklik aminlar bilan nukleofil almashinish reaksiyalari asosligi yuqori bo'lgan aminokomponentlar bilan oson ketishi va yuqori unumlar bilan yangi sulfonamidlar olinishi isbotlangan;

ilk bor 2,3-dialkilxinazon sulfonamidlarining izomer tolilizosianatlarga nukleofil birikishi amalga oshirilgan va sulfonilmochevinalar hosil bo'lishi $p\text{-CH}_3 < o\text{-CH}_3 < m\text{-CH}_3$ qatorida ortib borishi nazariy asoslab berilgan va reaksiyalarning taxminiy mexanizmi taklif etilgan;

2,3-dialkilxinazon sulfonamidlari va *p*-metoksi(ftor, xlor)fenilizosianatlar, propilizosianat, naftilizosianat bilan o'zaro maqsadli nukleofil birikish reaksiyalari uchun eng maqbul sharoitlar (sulfonamid : izosianat - 1:1.2, aseton, 56°C, 2.5-7 soat) tavsiya etilgan;

sulfonilmochevina fragmentli "aril-getaril" gibril molekullar **72** (11.6%) < **42** (21.6%) < **67** (45%) < **68** (58%) qatorida substrat tarkibidagi o'rinbosarlar turi va joylashgan o'rniga qarab insektitsid faollik oshib borishi aniqlangan;

2,3-dialkilxinazon sulfonamidlari va almashingan benzaldegidlarning kislotasi katalizatorlari ishtirokida "nukleofil birikish – eliminirlanish" reaksiyasi natijasida arilidensulfonil fragmentli xinazonlar hosil bo'lishi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

3-alkil-, 2,3-dialkilxinazonlarning xlorulfon kislotasi va ammiak ishtirokidagi sulfonamidlarning bir reaktorli (One-pot synthesis) sintez usuli ishlab chiqilgan;

3-alkilxinazonlar, xlorulfon kislotasi va gidrazin gidratning bir reaktorli reaksiyalari yordamida binukleofil reaksion markazli sulfonilgidrazidlar olish usullari yaratilgan;

3-butil-4-okso-3,4-digidroksinazolin-6-sulfoxloridning turli aminlar bilan nukleofil almashinish reaksiyalari amalga oshirilgan va yuqori unumlar bilan yangi sulfonamidlar olish usullari ishlab chiqilgan;

2,3-dialkilxinazon sulfonamidlari va izomer tolilizosianatlar ishtirokida yangi sulfonilmochevinalarni samarali sintez usullari tavsiya etilgan;

2,3-dialkilxinazon sulfonamidlari va almashingan izosianatlarning maqsadli nukleofil birikish usullari ishlab chiqilgan;

2,3-dialkilxinazon sulfonamidlari va almashingan benzaldegidlarning katalitik reaksiyasi natijasida arilidensulfonil-xinazonlar olish usullari yaratilgan;

sintez qilingan yangi birikmalar orasida ingibitorlik, insektitsidlik va diabetga qarshi faollik namoyon qiluvchi moddalar borligi aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi zamonaviy IQ, ^1H va ^{13}C YaMR-spektroskopiya, mass-spektrometriya, rentgen tuzilish tahlili (RTT), xromatografiya (YuQX, KX), biologik va boshqa tadqiqot usullari yordamida olingan natijalar asosida ishonchli tarzda isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, ilk bor 2H (alkil) xinazon-4(3H)-onlarni katalitik alkilash reaksiyalari, 3-alkil-, 2,3-dialkilxinazonlardan bir reaktorli usul asosida

tegishli S-saqlagan birikmalar sintezi, ularning turli elektrofil (almashingan izosianatlar va aldegidlar) va nukleofil reagentlar (birlamchi, ikkilamchi aromatik va geterotsiklik aminlar) bilan modifikatsiyalari tizimli tadqiq etilgan, natijada yangi C-N, C-S, S-N, S-NHNH₂, S-NH(CO)NH, S-N=CH bog‘lari saqlagan bitsiklik xinazolonlar qatori yangi alkil-mahsulotlar, xlorosulfon kislotalari, sulfonamidlar, sulfonilgidrazidlar, sulfonilmochevinalar va arilidensulfonil-hosilalar hosil bo‘lishi zamonaviy usullarda isbotlangan, reaksiyalar borishiga ta‘sir etuvchi asosiy omillar (reagentlar tuzilishi va nisbati, erituvchi tabiati, reaksiya harorati va davomiyligi) aniqlangan va nazariy jihatdan asoslangan.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati sintez qilingan birikmalar orasida ingibitorlik, insektitsidlik va diabetga qarshi faollikka ega moddalar borligi, 3-alkil-va 2,3-dialkilxinazolonlarni olishning maqbul usullari, ulardan sulfoxloridlar, sulfonamidlar, sulfonilgidrazidlarni sintez qilishning takomillashgan bir reaktorli usullari ishlab chiqilishi, maqsadli elektrofil va nukleofil almashinish / birikish reaksiyalarini amalga oshirilishi, sulfonilmochevinalar va arilidensulfonil-hosilalarni olishning samarali usullari yaratilganligi, 3 ta birikmaning RTT natijalari xalqaro Kembridj markaziy kristallografik ma‘lumotlar bazasiga kiritilganligi, 99 ta birikmaning (78 tasi yangi) sintez usullari ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotlar natijalarining joriy qilinishi. 3-Alkil-va 2,3-dialkilxinazolonlar, ular asosida sulfoxloridlar, sulfonamidlar, sulfonilgidrazidlarning takomillashgan sintezi, ulardan maqsadli nukleofil almashinish / birikish mahsulotlarining olinishi, sintez qilingan birikmalarning tuzilishi va biologik xossalarini aniqlash bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

3-butil-4-okso-3,4-digidroxinazolin-6-sulfonamid, 3-butil-2-metil-4-okso-3,4-digidroxinazolin-6-sulfonamid, 2-metil-4-okso-3,4-digidroxinazolin-1-iy xlorid larning RTT natijalari Kembridj markaziy kristallografik ma‘lumotlar bazasiga kiritilgan (The Cambridge Structural Database, <https://www.ccdc.cam>, CCDC: 2190885, 2345709, 2416982). Natijada, bazaga kiritilgan ma‘lumotlar o‘xshash birikmalarni sintez qilish va ularning tuzilishini tavsiflash imkonini bergan;

bitsiklik xinazolinlar qatorida sulfonamidlar sintezi va kimyoviy o‘zgarishlari natijalaridan F-FA-2021-408: “Zamonaviy kross-birikish va geterosiklizatsiya reaksiyalari asosida molekulaga farmakofor fragmentlar kiritish qonuniyatlarini tadqiq etish” (2021-2024) mavzusidagi fundamental loyihani bajarishda xinazolin-4-on, 2-metilxinazolin-4-on, 2,3-dimetilxinazolin-4 lar sintezida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining 2025-yil 14-fevraldagi 4/1255-409-son ma‘lumotnomasi). Natijada, sintez qilingan 2-metilxinazolin-4-on va 2,3-dimetilxinazolin-4 ishtirokida Vilgerodt – Kindler reaksiyasi oson borishi aniqlangan va yangi tioamidlar sintezi muvaffaqiyatli amalga oshirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 16 ta, jumladan 9 ta xalqaro va 7 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma‘ruza qilingan va muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 22 ta ilmiy ish chop etilgan, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop

etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 2 ta maqola respublika, 4 ta maqola xalqaro jurnallarda (*Scopus*) nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 119 betni tashkil etadi.*

* Muallif dissertatsiya ishini bajarish va taqdim etishning barcha bosqichlarida ilmiy jihatdan qo'llab-quvvatlagan O'simlik moddalari kimyosi instituti professori, kimyo fanlari doktori B.J. Elmuradovga samimiy minnatdorlik bildiradi.



DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmetlari tavsiflangan, Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritilgan, natijalarni amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.


Dissertatsiyaning "**Sulfonamidlarning sintezi, tuzilishi, kimyoviy xossalari va biologik faolliklari**" deb nomlangan **birinchi bobida** mavzu bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarning natijalari, xorijiy va mahalliy adabiyotlar tahlili batafsil yoritilgan. Ma'lumotlar umumlashtirilgan va ilmiy-tahliliy xulosalar chiqarilgan hamda ilmiy adabiyotlardagi ma'lumotlar asosida dissertatsiya ishining maqsadi, vazifalari, dolzarbligi va muhimligi belgilab berilgan.

Dissertatsiyaning "**Bitsiklik xinazonon sulfonamidlarining olinishi, kimyoviy o'zgarishi va biologik faolligi**" nomli **ikkinchi bobida** tadqiqot natijalari keltirilgan.


2H(Metil, etil)-3-alkil-4-okso-3,4-digidroksinazolinlar sintezi. Boshlang'ich reagentlar - 2H(metil, etil)xinazolin-4(3H)-onlar (**1-3**) va alkilgalogenid:kaliy gidroksid - 1:1.2:1 ekvivalent nisbatlardagi aralashmalari ishtirokida, 6 soat davomida etanolda qizdirish (78°C) orqali 2(H, Me, Et)-3-alkil-4-okso-3,4-digidroksinazolin-4-onlar (**4-21**) sintezi yuqori (70-92%) unumlarda amalga oshirildi (1-jadval). Natijada alifatik radikallar hajmining kattalashib borishi bilan alkil mahsulotlar unumlari (**4** (Me) > **5** (Et) > **6** (Pr) > **7** (Bu) > **8** (Pe) > **9** (Hx) > **10** (Hp)) qatorda pasayishi aniqlandi. Sintez qilingan birikmalarning (**4-21**) tuzilishi zamonaviy fizik-tadqiqot usullari (IQ, ¹H, ¹³C YaMR spektroskopiya) yordamida to'liq tasdiqlandi. 1,2,3-Rasmlarda **17, 18, 21**-moddalarning kristaldagi tuzilishlari keltirilgan:



1-Rasm. 17-Moddaning kristaldagi tuzilishi.



2-Rasm. 18-Moddaning kristaldagi tuzilishi.



3-Rasm. 21-Moddaning kristaldagi tuzilishi.

4 R=H, R'=CH₃; **5** R=H, R'=C₂H₅; **6** R=H, R'=C₃H₇; **7** R=H, R'=C₄H₉; **8** R=H, R'=C₅H₁₁; **9** R=H, R'=C₆H₁₃; **10** R=H, R'=C₇H₁₅; **11** R=H, R'=C₆H₅CH₂; **12** R=R'=CH₃; **13** R=CH₃, R'=C₂H₅; **14** R=CH₃, R'=C₃H₇; **15** R=CH₃, R'=C₄H₉; **16** R=CH₃, R'=C₅H₁₁; **17** R=CH₃, R'=C₆H₁₃; **18** R=CH₃, R'=C₇H₁₅; **19** R=CH₃, R'=C₆H₅; **20** R=CH₃, R'=C₂H₅; **21** R=R'=C₂H₅.


1-Jadval. Sintez qilingan 4-21-moddalarning ba'zi fizik-kimyoviy kattaliklari.

Birikma	Brutto formula	Unum, %	R _f (xlороform: metanol-10:1)	Suyuq. har., °C
4	C ₉ H ₈ N ₂ O	90	0.65	96-98

5	C ₁₀ H ₁₀ N ₂ O	86	0.61	90-92
6	C ₁₁ H ₁₂ N ₂ O	82	0.70	75-77
7	C ₁₂ H ₁₄ N ₂ O	81	0.58	58-60
8	C ₁₃ H ₁₆ N ₂ O	76	0.60	51-53
9	C ₁₄ H ₁₈ N ₂ O	72	0.62	56-58
10	C ₁₅ H ₂₀ N ₂ O	71	0.72	41-43
11	C ₁₅ H ₁₂ N ₂ O	74	0.83	112-114
12	C ₁₀ H ₁₀ N ₂ O	92	0.63	104-106
13	C ₁₁ H ₁₂ N ₂ O	91	0.60	95-97
14	C ₁₂ H ₁₄ N ₂ O	89	0.80	70-72
15	C ₁₃ H ₁₆ N ₂ O	84	0.77	64-66
16	C ₁₄ H ₁₈ N ₂ O	77	0.62	50-52
17	C ₁₅ H ₂₀ N ₂ O	74	0.65	47-50
18	C ₁₆ H ₂₂ N ₂ O	70	0.76	40-42
19	C ₁₆ H ₁₄ N ₂ O	76	0.60	118-120
20	C ₁₁ H ₁₂ N ₂ O	90	0.50	120-121
21	C ₁₂ H ₁₄ N ₂ O	89	0.66	92-94

21-moddaning ¹H YaMR spektrida (400 MGts, DMSO-d₆) aromatik halqaga tegishli H-5,6,7,8 protonlar mos ravishda 8.0 m.u. (1H, s) va 7.4 m.u. (1H, s) sohalarda singlet, 7.6 m.u. da (1H, dd) dubletlar dubleti, 7.5 m.u. sohada (1H, d) dublet ko‘rinishidagi signallarga ega. Bundan tashqari 1.3 m.u. sohada pirimidin halqasining N³-CH₂CH₃ etil fragmenti metil guruhiga tegishli uch protonli (3H, t, J=8.1) triplet va 4.1 m.u. sohada esa metilen guruhining (N³-CH₂CH₃) ikki protonli (2H, k, J=7.1) kvartet signallar ko‘rinishida, shuningdek, 1.3 m.u. sohada H-2 etil radikaliga tegishli metil guruhining uch protonli (3H, t, J=7.1) tripleti, 2.8 m.u. sohada esa ikki protonli (2H, k, J=7.1) kvartet shakldagi kimyoviy siljishlar namoyon bo‘ladi. Bu esa olingan moddaning tuzilishini to‘liq tasdiqlaydi.

Bir reaktorli sintez usuli yordamida alkilxiazolonlar qatori sulfonamidlarning olinishi. Adabiyotlardan ma‘lumki, sulfonamidlar bakterial infeksiyalarni davolashda keng qo‘llaniladigan birikmalardir. Bu birikmalari asosida yaratilgan preparatlar saraton va qandli diabetni davolashda hamda pestitsidlar sifatida ishlatilmoqda. Tadqiqotlarimiz davomida sulfonamidlarning sintezini bir reaktorli (One-pot) sintez usuli yordamida amalga oshirdik. Buning uchun, 2H(3-alkil)- (4-7) va 2,3-dialkil-4-okso-3,4-digidroksiazolinlar (12-15, 20, 21) va xlorosulfon kislotaning 1:10 ekvivalent nisbatdagi aralashmasi moy hammomida yuqori haroratda qizdirildi:



4, 22 R=H, R'=CH₃; 5, 23 R=H, R'=C₂H₅; 6, 24 R=H, R'=C₃H₇; 7, 25 R=H, R'=C₄H₉; 12, 26 R=R'=CH₃; 13, 27 R=CH₃, R'=C₂H₅; 14, 28 R=CH₃, R'=C₃H₇; 15, 29 R=CH₃, R'=C₄H₉; 20, 30 R=C₂H₅, R'=CH₃; 21, 31 R=R'=C₂H₅.

Bunda dastlab, oraliq modda sifatida yuqori sintetik salohiyatli 3-alkil-4-okso-3,4-digidroksiazolin-6-sulfoxlorid (A) hosil bo‘ladi, uning ortiqcha olingan konsentrlangan suvli ammiak (25% NH₄OH) bilan ta‘siridan kutilgan sulfonamidlar (22-31) sintezi amalga oshadi. Ko‘p sonli tajribalar asosida tanlangan ushbu sharoitda eng yaxshi natijalarga erishildi, shuning uchun uni eng maqbul sharoit etib olindi.


Ushbu usulda yuqori unumlar (78-92%) bilan yangi sulfonamidlar (**22-31**) sintezi amalga oshirildi (2-Jadval).

2-Jadval. Olingan moddalarning (**22-31**) ba'zi fizik-kimyoviy kattaliklari


№	Brutto formula	Unum, %	R _f (xloroform: metanol-10:1)	Suyuq. har., °C
22	C ₉ H ₉ N ₃ O ₃ S	90	0.20	243-245
23	C ₁₀ H ₁₁ N ₃ O ₃ S	88	0.27	198-200
24	C ₁₁ H ₁₃ N ₃ O ₃ S	85	0.40	180-182
25	C ₁₂ H ₁₅ N ₃ O ₃ S	80	0.55	173-174
26	C ₁₀ H ₁₁ N ₃ O ₃ S	92	0.37	264-266
27	C ₁₁ H ₁₃ N ₃ O ₃ S	90	0.56	252-254
28	C ₁₂ H ₁₅ N ₃ O ₃ S	88	0.47	216-218
29	C ₁₃ H ₁₇ N ₃ O ₃ S	85	0.38	181-182
30	C ₁₁ H ₁₃ N ₃ O ₃ S	80	0.45	243-244
31	C ₁₂ H ₁₅ N ₃ O ₃ S	78	0.52	235-237

Metilen guruhlari soni ortishi - amil (C₅H₁₁), geksil (C₆H₁₃), geptil (C₇H₁₅) va benzil (C₆H₅-CH₂) guruhlari saqlagan xinazonlarda xlorosulfonillash bormasligi kuzatildi.

Quyida olingan ayrim birikmalarning (**23**, 4-rasm; **25**, 5-rasm; **26**, 6-rasm; **27**, 7-rasm; **28**, 8-rasm; **29**, 9-rasm) kristaldagi tuzilishi keltirilgan:




Quyida jarayonning taxminiy mexanizmi (**4**-modda misolida) keltirilgan: reaksiya asosan uch bosqichda, ya'ni dastlabki 3-metilxinazolin-4-onning (**4**) xlorosulfon kislota ishtirokida benzol halqasida elektrofil almashinish (avval π -kompleks (**A**) keyin σ -kompleks (**B**) hosil bo'ladi) sodir bo'lib, oraliq modda sifatida



tegishli sulfokislota (C) ajralib chiqadi: sulfokislolaning reaksiyon aralashmadagi ortiqcha xlorosulfon kislota ta'sirida nukleofil almashinish reaksiyasiga kirishib sulfoxlorid (D) hosil bo'ladi, uning ortiqcha olingan konsentrlangan suvli ammiak (25% NH₄OH) ta'sirida navbatdagi nukleofil almashinish reaksiyasi natijasida kutilgan mahsulot – asos holdagi sulfonamidning (22) sintezi amalga oshadi.


Olingan 22-31-moddalarning tuzilishlari zamonaviy fizik-tadqiqot usullari: IQ, ¹H, ¹³C YaMR spektroskopiya, TLC-MS mass-spektrometriya hamda RTT yordamida tasdiqlandi. Xususan, 28-moddaning IQ-spektrida sulfonil guruhi bilan bog'langan amino (NH₂) guruhining yutilish chastotasi kuchsiz (3244 sm⁻¹) sohada, SO₂ guruhi 1389 va 1165 sm⁻¹ sohalarida, C-S bog'lari 755 sm⁻¹ sohada namoyon bo'ladi. Uning (28) ¹H YaMR (400 MGts, DMSO-d₆) spektrida 7.5 m.u. sohada sulfonamid (SO₂NH₂) fragmentidagi NH₂-guruh (2H, s) ikki protonli singlet, 8.5 m.u. da aromatik Ar_H-5 (1H, d, J=2.3) bir protonli dublet, 8.1 m.u. sohada Ar_H-7 (1H, dd, J=8.6, 2.2) bir protonli dubletlar dubleti, 7.7 m.u. da Ar_H-8 (1H, d, J=8.0) bir protonli dublet, shuningdek, 2.6 m.u. sohada pirimidin halqasidagi 2-CH₃ ga tegishli uch protonli singlet (3H, s), nisbatan kuchli 0.9 m.u. sohada N³-propil fragmentiga tegishli metil guruhiga xos (3H, t, J=7.3) uch protonli triplet, 1.6 m.u. da ikki protonli (2H, m) multiplet va 3.9 m.u. sohada esa ikki protonli (2H, t, J=5.0) triplet ko'rinishidagi kimyoviy siljish (KS) mavjudligi uning tuzilishini tasdiqlaydi. Natijada reaksiyon faol sulfonamidlarning oson va samarali - bir reaktorli (One- pot) sintez usullari ishlab chiqildi.

3-Alkil-4-okso-3,4-digidroksiazolin-6-sulfogidrazidlarning sintezi. Sintetik organik kimyoda zaruriy sintonlardan biri hisoblangan, binukleofil - gidrazinil fragmentini saqlagan moddalarning sintezi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu maqsadda, gidrazin gidrat orqali gidrazidlash reaksiyasini amalga oshirdik. Buning uchun, bir reaktorli sintez usulidan foydalanildi va obyektlar sifatida 3-metil(etil)-4-okso-3,4-digidroksiazolinlar (4,5) tanlab olindi:



Reaksiyada xlorsulfon kislotasi va substratdan 10:1 ekvivalent nisbatdagi aralashmasi moy hammomida, 120-130°C haroratda, 4-6 soat davomida qizdirildi, reaksiyon aralashmadan oraliq mahsulot (6-xlorsulfonil-hosila, **B**) ajratib olinmasdan gidrazin gidratning 3:1 nisbatdagi suvli eritmasi bilan ta'sir ettirildi va kutilgan 6-sulfogidrazidlar (**32**, **33**) sintez qilindi. **33**-Birikmaning ^1H YaMR spektrida (600 MGts, DMSO- d_6), 8.1 m.u. sohasida gidrazinil guruhining NH-atomiga tegishli bo'lgan bir protonli multiplet, Ar_H -8 proton 8.42 m.u (1H, d) sohada dublet, pirimidin halqasidagi aromatik Ar_H -2 proton 8.39 m.u. da bir protonli keng singlet (1H, k.s), Ar_H -7 proton 7.72 m.u. sohada dubletlar dubleti (1H, dd, $J=8.7, 1.9$), Ar_H -5 proton 8.54 m.u. da bir protonli singlet (1H, s), 4.04 m.u sohada esa N^3 -etil fragmentiga tegishli metilen guruhi ikki protonli (2H, k, $J=6.0$) kvartet, 1.3 m.u.da metil guruhining uch protonli (3H, t, $J=6.0$) triplet ko'rinishidagi KS qiymatlari uning tuzilishini tasdiqlaydi.

3-Butil-4-okso-3,4-digidroksinazolin-6-sulfoxloridning aminlar ishtirokida nukleofil almashinish reaksiyalari. Tajribalar davomida sulfonamidlarning sintezi bosqichma-bosqich amalga oshirildi. Boshlang'ich xomashyo sifatida xlorsulfonil hosila (**34**) sintezi 3-butil-4-okso-3,4-digidroksinazolinning (**7**) xlorsulfon kislotasi bilan reaksiyasi tionil xlorid ishtirokida amalga oshirildi. Bunda, substrat (**7**), xlorsulfon kislotasi va tionil xloridning 1:10:2.5 ekvivalent nisbatdagi aralashmasi 9 soat davomida qaynatish orqali amalga oshirildi va yuqori unum (92%) bilan 3-butil-4-okso-3,4-digidroksinazolin-6-sulfoxlorid (**34**) olindi. Olingan sulfoxloridning (**34**) tegishli aminlar bilan nukleofil almashinish reaksiyalari 2 ekvivalent TEA ishtirokida, substrat (**34**) va tegishli aminlarni 1:1.5 ekvivalent miqdorlarda amalga oshirildi:




Sulfonamidlar (**35-40**) sintezida erituvchi sifatida asetonitril (aproton) ishlatildi.


Olingan **35-40**-birikmalarning tuzilishi IQ, ^1H , ^{13}C YaMR spektroskopiya va RTT natijalari (10-rasm) asosida to'liq tasdiqlandi. 3-Butil-4-okso-3,4-digidroksinazolin-6-morfolinosulfonamidning (**35**) ^1H YaMR (400 MGts, DMSO- d_6) spektrida 8.4 m.u. sohada pirimidin halqasiga tegishli H-2 protoni singlet (1H, s), morfolin fragmentidagi ikkita to'rt protonli CH_2 -guruh protonlarining multiplet signallari 3.6 m.u. (4H, m) va

2.9 m.u. (4H, m) sohalarda aniqlandi. Shuningdek, N³-butil radikalining metil guruhi 0.9 m.u. da (3H, t, J=7.3) triplet, metilen guruhlari - 1.4 m.u. sohada (2H, m) multiplet, 1.7 m.u. da esa (2H, k, J=7.4) kvartet, N³-CH₂ guruhi 3.9 m.u. sohada (2H, t, J=7.3) triplet shaklidagi signallari mavjudligi uning tuzilishini tasdiqlaydi.

2H(metil)-3-alkil-4-okso-3,4-digidroksiazolin-6-sulfonamidlar, isomer tolilizosianatlar va p-metoksifenil izosianatlardan sulfonilmochevinalar olish. Amaliy ahamiyati jihatdan qiziqarli bo'lgan, yangi sulfonilmochevinalar olish uchun substrat sifatida monoalkil- (22-25) va dialkil-xinazolonlar (26-29), isomer (*orto*-, *meta*-, *para*-) tolilizosianatlar hamda *para*-metoksifenil izosianatlardan foydalanib nisbatan yumshoq sharoitda nukleofil birikish reaksiyalari olib borildi. Reaksiya substratlar (22-29), izosianatlar va quruq potashning 1:1.2:1 ekvivalent nisbatlardagi aralashmasini absolyut asetonida, 4-6 soat qaynatish bilan olib borildi (3-jadval):



Tadqiqotlar natijasida reaksiya mahsulotlarining **41-48** (71-89%), **49-56** (79-95%), **57-64** (68-85%) va **65-72** (70-86%) sintezi yuqori unumlarda amalga oshirildi. Tajribalarda izomer tolilizosianatlar ishlatilganda CH₃ guruhlarning +I ta'siri natijasida -N=C=O (izosianat) guruhining C-atomi elektrofilligi turlicha o'zgaradi. Bunda *orto*- va *para*-izomerlar misolida elektrofillik kamayadi, lekin *meta*-tolilizosianat misolida esa qisman ortadi. Shuning uchun, sulfonilmochevinalar (**49-56**) hosil bo'lishi *p*-CH₃ < *o*-CH₃ < *m*-CH₃ qatorda ortib boradi. Quyida reaksiyaning taxminiy mexanizmi (**26**-modda misolida) keltirilgan, reaksiya nukleofil birikish mexanizmi bo'yicha ketishi mumkin:




Buning uchun, dastlabki birikma (**26**) tarkibidagi sulfonamid fragmentining nisbatan kuchsiz nukleofil markaz - birlamchi amino guruh N-atomining izosianat molekulasini kuchli elektrofil C-atomiga nukleofil hujumi bilan boshlanadi, bunda dastlab tuz ko'rinishidagi nukleofil birikish mahsuloti (**A**), undan oraliq karbamid kislota (**B**) hosil bo'lishi mumkin. Karbamid kislota molekulasida elektronlarning qayta taqsimlanishi natijasida tegishli sulfonilmochevina (**45**) olinishi mumkin.

3-Jadval. Olingan birikmalarning (41-72) ayrim fizik-kimyoviy kattaliklari

Birikma	Brutto formula	Unum, %	Rf (benzol : aseton – 4 : 1)	Suyuq.har., °C
41	C ₁₇ H ₁₆ N ₄ O ₄ S	85	0.60	212-213
42	C ₁₈ H ₁₈ N ₄ O ₄ S	84	0.58	160-162
43	C ₁₉ H ₂₀ N ₄ O ₄ S	79	0.58	142-144
44	C ₂₀ H ₂₂ N ₄ O ₄ S	71	0.57	180-181
45	C ₁₈ H ₁₈ N ₄ O ₄ S	89	0.49	258-259
46	C ₁₉ H ₂₀ N ₄ O ₄ S	88	0.57	201-202
47	C ₂₀ H ₂₂ N ₄ O ₄ S	85	0.46	178-179
48	C ₂₁ H ₂₄ N ₄ O ₄ S	77	0.65	168-170
49	C ₁₇ H ₁₆ N ₄ O ₄ S	94	0.58	230-232
50	C ₁₈ H ₁₈ N ₄ O ₄ S	90	0.34	216-217
51	C ₁₉ H ₂₀ N ₄ O ₄ S	86	0.62	169-170
52	C ₂₀ H ₂₂ N ₄ O ₄ S	79	0.68	176-178
53	C ₁₈ H ₁₈ N ₄ O ₄ S	95	0.41	209-210
54	C ₁₉ H ₂₀ N ₄ O ₄ S	92	0.55	118-120
55	C ₂₀ H ₂₂ N ₄ O ₄ S	89	0.44	148-150
56	C ₂₁ H ₂₄ N ₄ O ₄ S	81	0.63	159-160
57	C ₁₇ H ₁₆ N ₄ O ₄ S	83	0.58	272-273
58	C ₁₈ H ₁₈ N ₄ O ₄ S	81	0.50	266-267
59	C ₁₉ H ₂₀ N ₄ O ₄ S	76	0.49	235-236
60	C ₂₀ H ₂₂ N ₄ O ₄ S	68	0.59	241-242
61	C ₁₈ H ₁₈ N ₄ O ₄ S	85	0.52	278-279
62	C ₁₉ H ₂₀ N ₄ O ₄ S	82	0.40	264-266
63	C ₂₀ H ₂₂ N ₄ O ₄ S	79	0.41	238-240
64	C ₂₁ H ₂₄ N ₄ O ₄ S	70	0.69	249-250
65	C ₁₇ H ₁₆ N ₄ O ₅ S	80	0.48	200-202
66	C ₁₈ H ₁₈ N ₄ O ₅ S	77	0.60	148-150
67	C ₁₉ H ₂₀ N ₄ O ₅ S	74	0.55	154-156
68	C ₂₀ H ₂₂ N ₄ O ₅ S	70	0.51	160-162
69	C ₁₈ H ₁₈ N ₄ O ₅ S	86	0.66	186-188
70	C ₁₉ H ₂₀ N ₄ O ₅ S	78	0.54	162-164
71	C ₂₀ H ₂₂ N ₄ O ₅ S	76	0.46	202-204
72	C ₂₁ H ₂₄ N ₄ O ₅ S	71	0.59	148-150


Sintez qilingan birikmalarning (41-72) tuzilishi IQ, ¹H, ¹³C YaMR spektroskopiya natijalari asosida to'liq isbotlandi. Xususan, 65-moddaning ¹H YaMR (400 MGts, DMSO-d₆) spektrida,



3.5 m.u. sohada N³-Me guruhining uch protonli singlet (3H, s) signali, 3.6 m.u. da *para*-OMe guruhiga tegishli uch protonli singlet (3H, s) aniqlandi. Mochevina fragmentining imino (N-H) guruhi 8.41 m.u. da bir protonli singlet (1H, s), pirimidin halqasi bilan kondensirlangan benzol halqasiga tegishli H-5, H-7, H-8 protonlar 8.38 m.u.da bir protonli singlet (1H, s), 8.2 m.u.da bir protonli dubletlar dubleti (1H, dd, J=8.7, 2.2) va 7.7 m.u. sohada bir protonli dublet (1H, d, J=8.3) shaklidagi KS namoyon qiladi, *p*-metoksifenil fragmentiga tegishli aromatik protonlar: 7.2 m.u. sohada H-2' va

H-6' ning ikki protonli dubleti (2H, d, J=9.1), 6.7 m.u. sohada esa H-3' va H-5' larga tegishli ikki protonli (2H, d, J=9.1) dubletlarning KS aniqlandi.

**2H(metil)-3-alkil-4-okso-3,4-digidroksiazolin-6-sulfonamidlar, N-propilizo-
sianat va α -naftilizosianat asosida sulfonilmochevinalar sintezi.** Tadqiqotlarni davom ettirib, 2H(metil)-3-alkil-4-okso-3,4-digidroksiazolin-6-sulfonamidlarning (22-29) N-propilizo-
sianat va α -naftilizosianat (*α -naphthyl isocyanate (ANIT)*) bilan, quruq potash ishtirokida 1:1.2:1 ekvivalent nisbatlarda olingan aralashmasini absolyut asetonida 56°C da 4-7 soat qaynatib olib borildi (4-jadval):



Izosianat guruhi (–N=C=O) reaksiya qobiliyati yuqori funksional guruhdir, shuning uchun, sulfonamidlarning nukleofil birikishi oson ketadi. Reaksiyalar natijasida N-propilizo-
sianat (68-85%) va α -naftilizosianat (77-94%) bilan yuqori unumlarda yangi sulfonilmochevinalar (73-88) olinadi.

4-Jadval. Olingan birikmalarning (73-88) ayrim fizik-kimyoviy kattaliklari


Birikma	Brutto formula	Unum, %	*Rf	Suyuq.har., °C
73	C ₁₃ H ₁₆ N ₄ O ₄ S	78	0.34*	166-167
74	C ₁₄ H ₁₈ N ₄ O ₄ S	75	0.50*	168-169
75	C ₁₅ H ₂₀ N ₄ O ₄ S	72	0.49*	154-155
76	C ₁₆ H ₂₂ N ₄ O ₄ S	68	0.59*	149-150
77	C ₁₄ H ₁₈ N ₄ O ₄ S	85	0.30*	200-201
78	C ₁₅ H ₂₀ N ₄ O ₄ S	80	0.40*	189-190
79	C ₁₆ H ₂₂ N ₄ O ₄ S	76	0.40*	171-173
80	C ₁₇ H ₂₄ N ₄ O ₄ S	70	0.69*	152-154
81	C ₂₀ H ₁₆ N ₄ O ₄ S	86	0.56**	200-202
82	C ₂₁ H ₁₈ N ₄ O ₄ S	83	0.55**	217-219
83	C ₂₂ H ₂₀ N ₄ O ₄ S	79	0.42**	152-153
84	C ₂₃ H ₂₂ N ₄ O ₄ S	77	0.73**	225-226
85	C ₂₁ H ₁₈ N ₄ O ₄ S	94	0.88**	168-170
86	C ₂₂ H ₂₀ N ₄ O ₄ S	92	0.72**	283-285
87	C ₂₃ H ₂₂ N ₄ O ₄ S	91	0.53**	258-260
88	C ₂₄ H ₂₄ N ₄ O ₄ S	90	0.70**	138-140

Sistema: *etilsetat:metanol – 2 : 1, ** benzol : aseton – 4 : 1


Olingan birikmalarning tuzilishi ¹H, ¹³C YaMR, IQ spektroskopiya, TLC-MS mass-spektrometriya usullari (73-88) va RTT tahlili (78, 79) yordamida to'liq isbotlandi. 84-
moddaning ¹H YaMR (400 MGts, DMSO-d₆) spektri misolida, naftil halqasiga tegishli 7.9 m.u. (1H, d, J=8.0, H-5''), 7.8 m.u. (2H, d, J=7.4, H-4',2''), 7.5 m.u. (1H, d, J=9.1, H-2'), 7.4 m.u. (2H, m, H-3'',4''), 7.3m.u. (1H, t, H-3') sohalardagi proton signallari, 8.6m.u. sohada pirimidin halqasiga kondensirlangan aromatik halqaga tegishli bir protonli H-5 signali (1H, d, J=2.2) dublet, H-7 hamda H-8 protonlar 8.2 m.u. da mos

ravishda bir protonli (1H, dd, J=8.6, 2.3) dubletlar dubleti va 7.6 m.u. sohada esa (1H, d, J=8.6) dublet signallar aniqlandi.

Shuningdek, metil radikallariga tegishli bo'lgan N³-Me uch protonli singlet signali 3.5 m.u. sohada (3H, s), C²-Me esa 2.6 m.u. sohada (3H, s) uch protonli singlet shaklidagi KS larni namoyon etganligi ushbu birikma tuzilishini to'liq tasdiqlaydi.




2H(Metil)-3-alkil-4-okso-3,4-digidroksiazolin-6-sulfonamidlarning galogen saqlagan aromatik izosianatlar bilan o'zaro reaksiyalari. Tadqiqotlar davomida 2H(metil)-3-alkil-4-okso-3,4-digidroksiazolin-6-sulfonamidlarning (**24-29**) galogen atomi saqlagan izosianatlar bilan ishqoriy muhitda nukleofil birikish reaksiyalari olib borildi va yaxshi unumlar bilan tegishli sulfonilmochevinalarni (**89-95**) olishga muvaffaq bo'lindi (5-Jadval):



5-Jadval. Olingan birikmalarning (**89-95**) ayrim fizik-kimyoviy kattaliklari


Birikma	Brutto formula	Unum, %	R _f (benzol:aseton – 4:1)	Suyuq.har., °C
89	C ₁₈ H ₁₇ ClN ₄ O ₄ S	65	0.76	267-268
90	C ₁₇ H ₁₅ ClN ₄ O ₄ S	81	0.63	196-198
91	C ₁₈ H ₁₇ ClN ₄ O ₄ S	77	0.72	168-170
92	C ₁₉ H ₁₉ ClN ₄ O ₄ S	73	0.49	280-282
93	C ₁₈ H ₁₇ FN ₄ O ₄ S	62	0.58	124-126
94	C ₁₉ H ₁₉ FN ₄ O ₄ S	70	0.50	148-150
95	C ₂₀ H ₂₁ FN ₄ O ₄ S	60	0.32	118-120

